

### 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida Namangan viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

YAHM hajmi,  
mlrd. so'm

**33 664,6**

YAHM o'sish  
sur'ati

**105,3 %**

YAHM deflyator  
indeksi

**110,6 %**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 33 664,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 5,3 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022- yilning yanvar-sentabridagi narxlariga nisbatan 110,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,5 % ga yetdi.



**2022-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>28 910,1</b>	<b>33 664,6</b>	<b>105,3</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	28 022,7	32 945,7	105,1
mahsulotlarga sof soliqlar	887,4	718,9	111,8
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>28 022,7</b>	<b>32 945,7</b>	<b>105,1</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>10 780,2</b>	<b>12 651,8</b>	<b>104,9</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>6 358,5</b>	<b>7 316,5</b>	<b>106,5</b>
sanoat	4 267,6	4 985,5	107,0
qurilish	2 090,9	2 331,0	105,5
<b>xizmatlar</b>	<b>10 884,0</b>	<b>12 977,4</b>	<b>104,6</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 125,9	2 539,7	107,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 464,7	1 826,2	112,1
boshqa xizmat tarmoqlari	7 293,4	8 611,5	102,2



## YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRARISH

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 11 135,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,0 % ga yuqoridir.

**2022-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari**  
*(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)*



**2022-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi**  
*(ming so'mda)*



## 2022-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2022- yil	2023- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,9	97,9
mahsulotlarga sof soliqlar	3,1	2,1
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>38,5</b>	<b>38,4</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>22,7</b>	<b>22,2</b>
sanoat	15,2	15,1
qurilish	7,5	7,1
<b>xizmatlar</b>	<b>38,8</b>	<b>39,4</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,6	7,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,2	5,5
boshqa xizmat tarmoqlari	26,0	26,2

## 2022-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2022- yil



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

38,5%

Sanoat

15,2%

Qurilish

7,5%

Xizmatlar

38,8%

2023- yil



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

38,4%

Sanoat

15,1%

Qurilish

7,1%

Xizmatlar

39,4%

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,1 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 38,4 % ni, sanoat tarmog'i 15,1 % ni, qurilish 7,1 % ni va xizmatlar sohasi 39,4 % ni tashkil qildi.



● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar



## 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)

YAHM



5,3

Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik  
xo'jaligi




1,8

Sanoat



1,0

Qurilish



0,4

Xizmatlar



1,7

Mahsulotlarga  
sof soliqlar






0,4

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,8 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrda – 2,0 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,0 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrda – 1,4 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrda – 0,9 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,7 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrda – 2,7 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrda – 0,4 f.p.)ga ko'paydi.



## 2022-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2023- yilning yanvar-sentabrda YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,9 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 38,4 %), sanoatda – 107,0 % (15,1 %), qurilishda – 105,5 % (7,1 %), xizmatlar sohasida 104,6 % (39,4 %)ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 107,4 % (7,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,1 % (5,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,2 % (26,2 %) dan iborat bo'ldi.




## 2022-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi


(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




### YAHM



### Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




### Sanoat




2023- yilning yanvar-sentabrida YAHM deflyatori indeksi 2022- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 110,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar sohasida 114,0 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida-111,9 % qayd etildi.



### Qurilish



### Xizmatlar





## 2022-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi

	Hajmi, mlrd.so‘m	Ulushi, % da
2022- yil	20 254,3	72,3
2023- yil	23 889,5	72,5

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 23 889,5 mlrd.so‘m (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida – 20 254,3 mlrd.so‘m)ni tashkil qildi. YAHMdagi ulushi 72,5 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida – 72,3 %)ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,2 % oshishi yirik korxonalar ulushining pasayishi bilan bog‘liq.

